

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
SENTYABR / 9-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В Г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, sentyabr.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ASOSIY VOSITALARNING DASTLABKI QIYMATINI SHAKLLANTIRISHNING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDAGI METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	9
Nematova Dilnoza Azamatovna	
TIJORAT BANKLARIDA MIJOZGA YO'NALTIRILGAN BIZNES-JARAYONLARINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING HOZIRGI HOLATI.....	15
Erdonayev Aliqul Xalimovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСТИНИЧНЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	23
Нигматова Сугдиена Жалолиддин кизи	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING MEKANIZMLARIDAN FOYDALANISH.....	29
Bazarova Mamlakat Supiyevna	
XORIJIY ILMIY STAJIROVKALARNI TASHKIL ETISH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISHNING TIZIMLI TAHLILI VA KONSEPTUAL MODEL.....	33
Tojiyev S.A., Mashg'ulotov J.A., Usmonov U.M.	
HUDUDLAR IQTISODIYOTIDAGI NOMUTANOSIBLIK LARNI BARTARAF ETISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	44
Toshov Mirzabek Hakimovich	
O'ZBEKISTONDA YENGIL SANOAT KORXONALARINING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH	50
O'rinova Umida Qodirjonovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA ULTRABINAFSHA C NURLANISH TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI: ZAMONAVIY HOLATI, SAMARADORLIGI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	54
Ibroximov Sanjarbek, Nematov Nurillo, Xakimov Dilmurod	
TEXNOGEN CHIQINDILAR ASOSIDA MNA-1 VA MNA-2 FAOL KIMYOVIY QO'SHIMCHALARINI SINTEZ QILISH VA SEMENT XAMIRINING REOLOGIK KO'RSATKICHLARINI BOSHQARISH.....	64
Muhamedov Nodir Abdug'aniyevich	
IKKI TOMONLAMA TA'MINLANADIGAN ASINXRON GENERATOR ASOSIDAGI SHAMOL ENERGETIKA TIZIMINI MATEMATIK MODELASHTIRISH VA VEKTORLI BOSHQARISHNI TADQIQ ETISH.....	69
To'ychiyev Furqat, Rashidov Nuralibek, Abduxalilov Abdumannop	
СЕЙСМОСТОЙКОСТЬ МАЛОЭТАЖНОГО ЗДАНИЯ С ПУЛТРУЗИОННЫМ СТЕКЛОПЛАСТИКОВЫМ КАРКАСОМ И ДЕФОРМАЦИОННО-РАЗВЯЗНЫМИ 3D-ПЕЧАТНЫМИ СТЕНАМИ.....	80
Акбаров Дильшод, Акрамов Хуснитдин	
LEGIRLANGAN SILIKAT SHISHADA ZEEBEK EFFEKTIGA MNO_2 TA'SIRI	90
Soliyev Muxammadyor, Tursunova Rushana	
TIJORAT BANKLARI KREDITLASH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI PROGNOZLASH.....	99
Eshboyev Shahobiddin Anorqul o'g'li	
O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORAT SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISH TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	107
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
UNIVERSITET INSON KAPITALINI SHAKLLANTIRISH EKOTIZIMI SIFATIDA: DUNYO VA O'ZBEKISTONDA TA'LIM SIYOSATINING EVOLYUTSIYASI	114
Sabirov Alisher, Oqmullayev Ravshanjon	
PUTUR YETKAZMASDAN TEKSHIRISH LABORATORIYALARINI AKKREDITATSIYALASHDA STANDARTLASHTIRISH TALABLARINING AHAMIYATI.....	122
Axmedov G'ayratjon Maxmudjonovich	



QURILISH SANOATI KORXONALARIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI	129
G'iyosov Ilxom Karimovich	
KORXONALARDA INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH: G'OYALARNI TIJORIYLASHTIRISHNING SAMARALI MEXANIZMLARI	137
Baymuradov Shoxrux, Dilmurodov Komiljon	
DAVLAT BUDJETI BARQARORLIGI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR KLASSIFIKATSIYASI	142
Gadoyeva Nilufar Erkinovna	
KORXONALARDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA INNOVATSION MARKETING TEKNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH	148
Ikramova Nasiba Axmadovna	
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING MAMLUKAT IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIRI.....	153
Mizamova Umida Jamoliddin qizi	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNING ASOSIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH VA PROGNOZ NATIJALARINI BAHOLASH (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)	158
Ibragimov Aziz Turayevich	
TAQSIMLANGAN IOT TIZIMLARIDA KECHEKISHGA SEZGIR VAZIFALARNI CHEKKA HISOB LASH (MEC) TUGUNLARIGA OPTIMAL YO'NALTIRISH USULLARI	164
Xolmatov Numonjon Meliboyevich	
ОРГАНИЗАЦИОННО-МЕТОДИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ФОРМИРОВАНИЯ КАЧЕСТВЕННОЙ ФИНАНСОВОЙ ИНФОРМАЦИИ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ НСФО	171
Джамбакиева Гулнора Сайфутдиновна	
RESEARCHING METHODS FOR THE AUTOMATIC DETECTION OF OFFENSIVE LANGUAGE BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE.....	181
Fayzullaev Nurbek, Kuchkarov Muslimjon	
MINTAQAVIY TRANSPORT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	186
Ikromov Elyor Ibodulloyevich	
TUMANLAR SANOAT SALOHİYATINI INTEGRAL BAHOLASH ASOSIDA KICHIK SANOAT ZONALARINI JOYLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MODELI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA).....	193
Yusupova Nigina Djurayevna	



TUMANLAR SANOAT SALOHİYATINI INTEGRAL BAHOLASH ASOSIDA KICHIK SANOAT ZONALARINI JOYLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MODELI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)

Yusupova Nigina Djurayevna

Osiyo xalqaro universiteti

Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

ORCID: 0009-0008-9425-2116

E-mail: Yusupova_nigina@oxu.uz

Annotatsiya. Maqolada hududiy sanoat rivojlanishidagi tumanlararo nomutanosiblikni kamaytirishning institutsional vositasi sifatida kichik sanoat zonalarini (KSZ) ilmiy asoslangan tarzda joylashtirish masalasi tadqiq etilgan. Buxoro viloyati misolida hudud sanoat salohiyatini tabiiy-resurs, mehnat, ishlab chiqarish, infratuzilmaviy, investitsion-moliyaviy va innovatsion xususiy salohiyatlar bo'yicha xususiy ko'rsatkichlarni chiziqli min–maks normallashtirish va vaznli yig'indi asosida yagona integral indeksga (ISP) keltirish uslubiyati taklif qilingan. Uslubiyat tumanlarni salohiyat darajasi bo'yicha to'rt klasterga ajratish hamda «salohiyat–natija» matritsasi orqali sanoat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi. Integral baholash natijalari asosida kichik sanoat zonalarini joylashtirishning besh mezonli ball-reyting tizimi, boshqaruvning «yagona operator» modeli, rezidentlarni saralashning ball-reyting mezonlari hamda samaradorlikni monitoring qilishning sakkiz ko'rsatkichli tizimi ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: hudud sanoat salohiyati, integral indeks, kichik sanoat zonolari, tumanlarni klasterlash, ball-reyting tizimi, yagona operator, hududiy konvergensiya, tabaqalashtirilgan sanoat siyosati.

Аннотация. В статье исследуется научно обоснованное размещение малых промышленных зон (МПЗ) как институционального инструмента сокращения межрайонных диспропорций в территориальном промышленном развитии. На примере Бухарской области предложена методика оценки промышленного потенциала территорий, предусматривающая объединение частных показателей природно-ресурсного, трудового, производственного, инфраструктурного, инвестиционно-финансового и инновационного потенциала в единый интегральный индекс промышленного потенциала (ИПП) на основе линейной min–max нормализации и взвешенного суммирования. Методика позволяет классифицировать районы по уровню потенциала на четыре кластера и определять приоритетные направления промышленной политики с использованием матрицы «потенциал–результат». На основе интегральной оценки разработаны пятифакторная балльно-рейтинговая система размещения малых промышленных зон, модель управления «единый оператор», балльно-рейтинговые критерии отбора резидентов, а также система мониторинга эффективности, включающая восемь показателей.

Ключевые слова: промышленный потенциал территории, интегральный индекс, малые промышленные зоны, кластеризация районов, балльно-рейтинговая система, единый оператор, территориальная конвергенция, дифференцированная промышленная политика.

Abstract. The article examines the scientifically grounded location of small industrial zones (SIZs) as an institutional instrument for reducing inter-district disparities in territorial industrial development. Using Bukhara Region as a case study, a methodology is proposed for assessing territorial industrial potential by integrating individual indicators of natural-resource, labor, production, infrastructure, investment-financial, and innovation potential into a single Integral Industrial Potential Index (IPI) through linear min–max normalization and weighted aggregation. The methodology enables districts to be classified into four clusters according to their level of industrial potential and identifies priority targets for industrial policy through a “potential–performance” matrix. Based on the integral assessment, a five-criterion scoring and rating system for the location of small industrial zones, a “single operator” governance model, scoring and rating criteria for resident selection, and an eight-indicator system for monitoring performance have been developed.

Keywords: territorial industrial potential, integral index, small industrial zones, district clustering, scoring and rating system, single operator, territorial convergence, differentiated industrial policy.

KIRISH

Bugungi kunda hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlashda sanoat tarmog'i muhim strategik ahamiyat kasb etadi. «O'zbekiston – 2030» strategiyasida qayta ishlash sanoatida mehnat unumdorligini oshirish, sanoatda yaratiladigan qo'shilgan qiymatni yuksaltirish hamda har bir tumanida zamonaviy texnologik sanoat zonalarini tashkil etish vazifalari belgilangan [3; 4]. Ushbu vazifalarning hududiy darajadagi ijrosi sanoatni joylashtirishning ilmiy asoslangan va natijaga yo'naltirilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini taqozo etadi.

Biroq amaldagi boshqaruv amaliyotida sanoat ishlab chiqarishi ayrim hududlarda haddan tashqari jamlangan bo'lib qolmoqda. Buxoro viloyati misolida bu holat yaqqol ko'rinadi. 2025-yilda viloyat sanoat mahsulotining 41,9 foizi yakka tuman – Qorovulbozor hissasiga to'g'ri keldi, aholi jon boshiga ishlab chiqarish bo'yicha esa mazkur tuman viloyat o'rtacha darajasidan 42,7 barobar yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi. Gerfindal–Girshman indeksi (HHI) 2025-yilda 1 973 birlikni tashkil etib, hududiy konsentratsiya darajasi hamon yuqoriligini ko'rsatadi [17]. Bunday nomutanosiblik sharoitida qishloq tumanlarida bo'sh mehnat resurslari zaxirasi shakllanib, ularning sanoat salohiyatidan yetarlicha foydalanilmayapti.

Bu muammoning yechimi sifatida kichik sanoat zonalarini tarmog'ini rivojlantirish alohida o'rin tutadi [1; 2; 5]. Yirik erkin iqtisodiy zonalar formati o'z tabiatiga ko'ra barcha tumanlarni qamrab ololmaydi, chunki ular yirik investitsion loyihalar va katta maydonlarga mo'ljallangan. Xalqaro tajriba (Xitoyning qishloq-shaharcha korxonalari, Turkiyaning tashkil etilgan sanoat hududlari, Hindistonning «industrial estates» amaliyoti) esa tuman darajasidagi sanoatlashtirish uchun aynan kichik formatdagi – 5–30 gektar maydon va 10–50 rezidentga mo'ljallangan – zonalar eng samarali institutsional yechim ekanini ko'rsatadi [8; 11]. Ularning ustunligi «tayyor sanoat muhiti» mahsulotini nisbatan arzon narxda taklif etishida: kichik korxona uchun yer olish, muhandislik tarmoqlariga ulanish va ruxsatnomalarni rasmiylashtirish bilan bog'liq kirish to'siqlari zona tarkibida sezilarli pasayadi.

Ayni paytda amaldagi amaliyot tahlili kichik sanoat zonalarini tashkil etish va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha bir qator ustuvor yo'nalishlarni belgilash imkonini beradi. Birinchidan, kichik sanoat zonalarini joylashtirishda hududlarning sanoat salohiyati, mavjud infratuzilma, resurslar ta'minoti va iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga oluvchi ilmiy asoslangan mezonlardan kengroq foydalanish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, zonalarini samarali boshqarishga xizmat qiluvchi tashkiliy mexanizmlarni yanada rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Uchinchidan, rezidentlarni tanlash jarayonida iqtisodiy samaradorlik, investitsion salohiyat, bandlikni ta'minlash va innovatsion faollik kabi mezonlarni tizimli qo'llash imkoniyatlari mavjud. To'rtinchidan, kichik sanoat zonalarini faoliyati natijadorligini baholashda aniq va o'lchab bo'ladigan KPI ko'rsatkichlari tizimini qo'llash ularning rivojlanish dinamikasini kompleks baholash imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolaning maqsadi hududlarning sanoat salohiyatini integral baholash asosida kichik sanoat zonalarini joylashtirish va rivojlantirishning yaxlit tashkiliy-iqtisodiy modelini ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoatni hududiy joylashtirish nazariyasining asoslari A. Veber va V. Kristallarning klassik joylashuv nazariyalarida ishlab chiqilgan bo'lib, ularda ishlab chiqarishning transport xarajatlari, xomashyoga va bozorga yaqinlik omillari asosida optimal joylashuvi tahlil qilinadi. Aglomeratsiya samaralari va yangi iqtisodiy geografiya doirasida P. Krugman, M. Fujita va J.-F. Tisse korxonalarining fazoviy jamlanishidan kelib chiqadigan miqyos iqtisodi, ixtisoslashgan mehnat bozorlari va bilim tarqalishi ustunliklarini asoslaganlar; M. Porter esa klaster nazariyasida korxonalarining fazoviy jamlanishi raqobat ustunligiga aylanishini ko'rsatgan [6; 7; 9].

Korxonalararo kooperatsiya va hududiy sanoat muhitining institutsional shakllari G. Bekattini boshchiligidagi «sanoat okruglari» (industrial districts) maktabida, maxsus iqtisodiy zonalar samaradorligi esa T. Farole tadqiqotlarida chuqur o'rganilgan [8; 11]. Hududlarning cheklangan ustuvorliklarga resurslarni jamlashi g'oyasi D. Foreyning «aqlli ixtisoslashuv» (smart specialisation) konsepsiyasida rivojlantirilgan [12]. R. Hausmann va C. Hidalgo «mahsulot makoni» (product space) yondashuvi esa yangi faoliyat hududda allaqachon mavjud qobiliyatlarga «yaqin» bo'lganda muvaffaqiyat ehtimoli yuqoriligini ko'rsatadi – bu kichik sanoat zonalarini ixtisoslashuvini tanlashda muhim metodologik tayanchdir [10].

Ko'p mezonli qarorlar qabul qilish (MCDM) va kompozit indeksni qurish uslubiyati T. Saatinig iyerarxiyalarni tahlil qilish usuli (AHP) hamda OECDning kompozit indikatorlarni qurish bo'yicha qo'llanmasida tizimlashtirilgan [13; 14]. O'zbekistonda sanoat va hududiy rivojlanish masalalari A. T. Yusupov, T. M. Axmedov, Q. Q. Sharipov ishlarida, Buxoro viloyati materiallarida esa A. B. Nizomov, D. Sh. Yavmutov, H. J. Qosimova tadqiqotlarida o'rganilgan [15; 16]. Biroq mazkur tadqiqotlar sanoat rivojlanishining alohida jihatlarini yoritgan bo'lsa-da, hudud sanoat salohiyatini tuman darajasida integral o'lchash hamda uning asosida kichik sanoat zonalarini joylashtirish uslubiyatini yaratish masalasi maxsus tadqiqot obyekti bo'lmagan. Ushbu holat mazkur maqola yo'nalishini belgilab berdi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning empirik bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va Buxoro viloyati statistika boshqarmasining 2010–2025-yillar davridagi rasmiy ma'lumotlari tashkil etadi. Tahlil viloyatning o'n uchta hududi (o'n bitta tuman hamda Buxoro va Kogon shaharlari) kesimida olib borildi. Tadqiqot jarayonida tavsifiy statistika, Gerfindal–Girshman indeksi, chiziqli min-maks normallashtirish, vaznli yig'indi usuli, klaster tahlili (intervalli shkala va k-o'rtachalar usuli) hamda ball-reyting baholash usullari qo'llanildi.

Uslubiyat ikki bog'langan bosqichdan iborat. **Birinchi bosqich** – hudud sanoat salohiyatini integral baholash. Amaldagi amaliyotda tumanlar sanoati asosan yalpi hajm ko'rsatkichi bo'yicha taqqoslanadi, bu esa metodik jihatdan salohiyat (imkoniyat) va natija (erishilgan daraja) tushunchalarini chalkashtiradi: hududida bitta yirik korxona joylashgan tuman «rivojlangan» ko'rinadi, uning diversifikatsiya salohiyati esa baholanmay qoladi. Taklif etilayotgan uslubiyat aynan shu bo'shliqni to'ldiradi: u tuman darajasida rasman mavjud ma'lumotlarga tayanadi, salohiyatni oltita xususiy salohiyatga ajratadi va natijani kichik sanoat zonalarini joylashtirish uchun kirish ma'lumotiga aylantiradi.

Xususiy ko'rsatkichlar turli o'lchov birliklarida bo'lgani sababli, rag'batlantiruvchi ko'rsatkichlar uchun $\tilde{x}_{ij} = (x_{ij} - x_{j,\min}) / (x_{j,\max} - x_{j,\min})$, destimulyator ko'rsatkichlar uchun esa $\tilde{x}_{ij} = (x_{j,\max} - x_{ij}) / (x_{j,\max} - x_{j,\min})$ formulasi bo'yicha chiziqli min-maks normallashtirish qo'llaniladi. So'ngra har bir xususiy salohiyat indeksi $P_m = \sum v_{mj} \cdot \tilde{x}_{mj}$ vaznli yig'indi sifatida, integral sanoat salohiyati indeksi esa $ISP_i = \sum w_m \cdot P_{m,i}$ ($m = 1 \dots 6, \sum w_m = 1, 0 \leq ISP \leq 1$) tarzida hisoblanadi. Natijalar barqarorligini baholash uchun klasterlash intervalli shkala va k-o'rtachalar usulida parallel amalga oshiriladi.

Ikkinchi bosqich – integral baho asosida kichik sanoat zonalarini joylashtirish. Har bir potensial maydon 100 ballik shkalada beshta mezon bo'yicha baholanadi. Mezonlar tanlovi joylashuv nazariyalarining klassik omillari (resurslarga yaqinlik, transport xarajatlari, mehnat bozori) va hududiy siyosatning ijtimoiy vazifalari uyg'unligiga asoslanadi. Baholash natijasida joylashtirish qarori subyektiv mulohazadan tekshiriluvchi hisob-kitobga aylanadi.

Tahlil va natijalar

Buxoro viloyati sanoat mahsulotining hududiy taqsimoti keskin nomutanosiblikni namoyish etadi. 2025-yil yakunlari bo'yicha Qorovulbozor tumani 22 394,9 mlrd so'm (41,9 foiz), Buxoro shahri 5 040,1 mlrd so'm (9,4 foiz), G'ijduvon tumani 3 182,8 mlrd so'm (6,0 foiz) mahsulot ishlab chiqargan, eng past ko'rsatkichlar esa Olot (1 112,0 mlrd so'm), Shofirkon (1 220,0 mlrd so'm) va Qorako'l (1 293,7 mlrd so'm) tumanlarida qayd etilgan. 13 hududdan faqat ikkitasida – Qorovulbozor va Kogon tumanlarida – aholi jon boshiga sanoat mahsuloti viloyat o'rtachasidan yuqori bo'ldi. Shu bilan birga, past bazali hududlarda o'sish sur'ati yuqori kuzatildi: Vobkent tumanida jon boshiga ishlab chiqarish 2010–2025-yillarda 56,8 barobar, Kogon tumanida 90,2 barobar oshdi. Bu qishloq tumanlarida foydalanilmagan o'sish salohiyati mavjudligini ko'rsatadi va kichik sanoat zonalarini aynan shu hududlarga yo'naltirish zaruratini asoslaydi.

Hudud sanoat salohiyatini baholash tizimi. Taklif etilayotgan uslubiyatda hudud sanoat salohiyati oltita xususiy salohiyatga ajratiladi. Xususiy salohiyatlar, ularning vaznlari va tarkibiy ko'rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan. Vaznlar taqsimoti sanoatni joylashtirish uchun mehnat va ishlab chiqarish omillarining ustuvorligini aks ettiradi (1-jadval).

1-jadval

Hudud sanoat salohiyatining xususiy salohiyatlari va ko'rsatkichlar tizimi

Xususiy salohiyat	Vazn	Tarkibiy ko'rsatkichlar (nisbiy yoki jon boshiga)
P1. Tabiiy-resurs	0,15	Mineral xomashyo zaxiralari, qishloq xo'jaligi xomashyosi hajmi, sanoatga ajratish mumkin bo'lgan yer maydonlari, suv ta'minoti darajasi
P2. Mehnat	0,20	Mehnatga layoqatli aholi soni, demografik o'sish; kasbiy ta'lim bitiruvchilari, mehnat resurslarining bo'sh zaxirasi
P3. Ishlab chiqarish	0,20	Jon boshiga sanoat mahsuloti, 1000 aholiga to'g'ri keladigan korxonalar soni; yirik va o'rta korxonalar ulushi, mahsulot diversifikatsiyasi darajasi
P4. Infratuzilmaviy	0,15	Elektr quvvati zaxirasi, gaz tarmog'i qamrovi, avtomobil yo'llari zichligi va sifati, logistika obyektlariga yaqinlik
P5. Investitsion-moliyaviy	0,15	Jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar, xorijiy investitsiyalar ulushi, kredit qo'yilmalari hajmi; budjet daromadlari o'sish sur'ati
P6. Innovatsion	0,15	Raqamli xizmatlar korxonalari soni, innovatsion faol korxonalar ulushi, oliy ma'lumotli kadrlar ulushi, keng polosali internetga ulanish darajasi

Manba: muallif ishlanmasi.

Integral indeks qiymatiga ko'ra tumanlar to'rt klasterga ajratiladi va har bir klaster uchun tabaqalashtirilgan sanoat siyosati yo'nalishi belgilanadi. Tasniflashning boshqaruv mazmuni shundaki, u qo'llab-quvvatlash

vositalarini hududning haqiqiy holatiga moslashtiradi va cheklangan davlat resurslarini eng yuqori chegaraviy qaytim beruvchi hududlarga yo'naltirish imkonini beradi (2-jadval).

2-jadval

Tumanlarni sanoat salohiyati bo'yicha klasterlash va tabaqalashtirilgan siyosat

ISP qiymati	Klaster	Sanoat siyosatining ustuvor yo'nalishi
0,70–1,00	I – yuqori salohiyat	Yirik loyihalar, chuqur qayta ishlash va eksport klasterlari
0,50–0,70	II – o'rtacha yuqori	Kichik sanoat zonalarini birinchi navbatda joylashtirish, kooperatsiya zanjirlarini shakllantirish
0,30–0,50	III – o'rtacha past	Infratuzilmani rivojlantirish, pilot zona, hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlash
0,00–0,30	IV – past salohiyat	Infratuzilma va kadrlar tayyorlashga ustuvorlik, mikrofirmalarni qo'llab-quvvatlash

Manba: muallif ishlanmasi.

Uslubiyatning yakuniy tahliliy elementi – «salohiyat–natija» matritsasi. Har bir tuman ikki o'q bo'yicha joylashtiriladi: absissa o'qi bo'yicha integral salohiyat indeksi, ordinata o'qi bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsuloti. Natijada to'rtta kvadrant hosil bo'ladi: «yetakchilar» (yuqori salohiyat – yuqori natija), «foydalanilmagan salohiyat» (yuqori salohiyat – past natija), «cheklangan muvozanat» (past salohiyat – past natija) va «xatarli yetakchilik» (past salohiyat – yuqori natija, odatda yagona yirik korxona hisobiga). Bu matritsa sanoat siyosatining aniq nishonini ko'rsatadi: ikkinchi kvadrantdagi tumanlar eng yuqori chegaraviy qaytimga ega, chunki ularda mavjud imkoniyatlar hali natijaga aylanmagan; to'rtinchi kvadrantdagi tumanlar esa diversifikatsiya bo'yicha maxsus chora talab qiladi, chunki ularning yuqori ko'rsatkichi yagona korxonaga bog'liq va shu sababli zaif. Buxoro viloyati sharoitida Qorovulbozor «xatarli yetakchilik» kvadrantining tipik namunasidir.

Kichik sanoat zonalarini joylashtirishning besh mezonli tizimi. Integral baho hududlarni umumiy saralashni ta'minlashda, aniq maydonni tanlash qo'shimcha mezonlarni talab qiladi. Har bir potensial maydon 100 ballik shkalada beshta mezon bo'yicha baholanadi (3-jadval).

3-jadval

Kichik sanoat zonalarini joylashtirish mezonlari va ularning vaznlari

Mezon	Maksimal ball	Baholanadigan parametrlar
M1. Infratuzilmaviy tayyorlik	25	Elektr quvvati zaxirasi, gaz va suv ta'minoti, kanalizatsiya, yo'l ulanishi, foydalanish mumkin bo'lgan bino-inshootlar
M2. Xomashyo bazasi	20	50 km radiusdagi qishloq xo'jaligi va mineral xomashyo hajmi, ikkilamchi resurslarni qayta ishlash imkoniyati
M3. Mehnat resurslari	20	Mehnatga layoqatli aholi soni, ishsizlik darajasi, kasb-hunar ta'limi muassasalarining mavjudligi
M4. Logistik joylashuv	20	Temir yo'l va avtomobil magistraliga masofa, asosiy bozorlarga yetkazib berish vaqti
M5. Ijtimoiy zaruriyat	15	Tumanda sanoat ulushining pastligi, mehnat migratsiyasi darajasi, kambag'allik ko'rsatkichi

Manba: muallif ishlanmasi.

Baholash natijalari uch qarorli qoidaga bo'ysunadi: 70 va undan yuqori ball – zonani birinchi navbatda tashkil etish maqsadga muvofiq; 50–70 ball – infratuzilma tayyorlangandan so'ng ikkinchi bosqichda; 50 balldan past – hozirgi sharoitda tashkil etish iqtisodiy jihatdan asoslanmagan. Ushbu qoida joylashtirish qarorini subyektiv mulohazadan tekshiriluvchi hisob-kitobga aylantiradi va, muhimi, rad etish uchun ham formal asos beradi – bu davlat resurslarini tarqoq loyihalarga sochilishdan himoya qiladi.

Zonalarning tarmoq ixtisoslashuvini tanlashda mahsulot makoni yondashuviga rioya etildi. Bunda yangi faoliyat hududda allaqachon mavjud qobiliyatlarga «yaqin» bo'lganda muvaffaqiyat ehtimoli yuqori bo'ladi. Shu asosda G'ijduvon tumani uchun oziq-ovqat va hunarmandchilik-keramika yo'nalishi (kulolchilik brendi va agrar xomashyo bazasi), Vobkent uchun to'qimachilik va tikuv-trikotaj, Shofirkon uchun paxtani chuqur qayta ishlash va yigiruv, Romitan uchun neft-gaz servisi va metall tuzilmalar, Jondor uchun meva-sabzavotni qayta ishlash, Qorako'l uchun teri-charm va jun yo'nalishi (tarixiy qorako'lchilik bazasi), Olot uchun agro qayta ishlash va omuxta yem, Peshko' uchun qurilish materiallari, Kogon tumani uchun logistika va qadoqlash, Buxoro tumani uchun turizm industriyasi mahsulotlari, mebel va suvenir ishlab chiqarish tavsiya etiladi.

Boshqaruvning «yagona operator» modeli. Har bir zona uchun alohida boshqaruv tuzilmasi tashkil etish kadrlar



va kompetensiyalarning tarqoqlanishiga, ma'muriy xarajatlarning takrorlanishiga olib keladi. Shu bois viloyat miqyosida yagona ixtisoslashgan operator kompaniyasini tashkil etish taklif qilinadi. Uning ta'sischilari tarkibida viloyat hokimligi nazorat ulushiga, tijorat banklari va xususiy investorlar esa qolgan ulushga ega bo'lishi maqsadga muvofiq. Operatorning asosiy funksiyalari infratuzilmani «yagona darcha» tamoyilida yetkazish, rezidentlarni ball-reyting asosida saralash va ijara shartnomalarini tuzish, KPI monitoringini yuritish va viloyat sanoat kengashiga hisobot berish, «tayyor sanoat maydonchasi» mahsulotini investorlarga faol taklif etish, rezidentlar uchun umumiy xizmatlarni (buxgalteriya, sertifikatlash, sinov laboratoriyasi, logistika) birgalikda foydalanish tamoyilida tashkil etishdan iboratdir. So'nggi funksiya alohida iqtisodiy mazmunga ega bo'lib, umumiy xizmatlar orqali kichik korxonaning doimiy xarajatlari qisqaradi, bu esa uning tirik qolish ehtimolini oshiradi. Ishlab chiqarish binolari rezidentning texnologik talablariga moslab qurish (build-to-suit) hamda «ijara – so'ngra sotib olish» mexanizmlari orqali taqdim etiladi, bu kirish to'sig'ini pasaytiradi.

Rezidentlarni saralashning ball-reyting tizimi. Maydonlarning cheklanganligi tanlov mezonlarini oshkor va o'lchanadigan qilishni taqozo etadi. Taklif etilayotgan tizimda loyihalar 100 ballik shkalada baholanadi (4-jadval).

4-jadval

Rezidentlarni saralashning ball-reyting mezonlari

Mezon	Ball	Maqsadli vazifa
1 mln AQSh dollari investitsiyaga to'g'ri keladigan yangi ish o'rinlari soni	25	Bandlik
Mahalliy xomashyodan foydalanish darajasi	20	Lokalizatsiya
Eksport salohiyati	20	Eksport
Loyihaning moliyaviy asoslanganligi (biznes-reja sifati, o'z mablag'i ulushi $\geq 1/3$)	20	Barqarorlik
Ekologik va energiya samaradorligi	15	Resurs tejamkorligi

Manba: muallif ishlanmasi.

Mezonlar tarkibi mexanizmning maqsadlar daraxti bilan bevosita bog'langan bo'lib, bandlik yaratish, lokalizatsiya, eksport diversifikatsiyasi va resurs samaradorligi vazifalari aynan tanlov bosqichida rag'batlantiriladi. Ball taqsimoti va tanlov natijalarining ochiq e'lon qilinishi jarayon shaffofligini ta'minlaydi.

Samaradorlikni kuzatishning KPI tizimi. Zona faoliyati yillik monitoring asosida maydonlarning bandlik darajasi, bir gektar yerga to'g'ri keladigan investitsiya hajmi; bir gektar yerga to'g'ri keladigan sanoat mahsuloti, yaratilgan doimiy ish o'rinlari soni, rezidentlarning yashovchanligi (uch yildan ortiq faoliyat yuritayotganlar ulushi), eksport hajmi, budjetga to'lovlar, infratuzilma xarajatlarning qoplanish muddati kabi sakkizta ko'rsatkich bo'yicha baholanadi. Ko'rsatkichlar to'plami zonani hisobot obyekti emas, investitsion loyiha sifatida baholashga qaratilgan bo'lib, infratuzilmaga sarflangan davlat mablag'i qanday muddatda qaytishi va qanday ijtimoiy natija berishi aniq o'lchanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Taklif etilgan modelni amalga oshirish uch bosqichda ko'zda tutiladi. Birinchi bosqichda (birinchi yil) tumanlar integral salohiyat uslubi bo'yicha baholanadi, pilot rejimda uchta zona tanlanadi, operator kompaniyasi tashkil etiladi va me'yoriy baza (viloyat hokimi qarori loyihasi, tanlov nizomi, KPI reglamenti) ishlab chiqiladi. Ikkinchi bosqichda (ikkinchi-uchinchi yillar) pilot zonalarining infratuzilmasi quriladi, rezidentlar saralanadi va dastlabki ishlab chiqarishlar ishga tushiriladi. Uchinchi bosqichda (to'rtinchi-beshinchi yillar) tajriba qolgan tumanlarga tirajlanadi, zonalar yirik erkin iqtisodiy zona va klasterlar bilan kooperatsiya zanjiriga ulanadi, KPI bo'yicha samarasiz zonalar esa qayta profillanadi yoki tugatiladi. So'nggi qoida modelning intizom elementi hisoblanadi: chiqish mexanizmisiz har qanday qo'llab-quvvatlash instituti vaqt o'tishi bilan samarasiz obyektlarni saqlab qoluvchi yukka aylanadi.

Hisob-kitoblar o'rtacha kattalikdagi bitta zona (10 gektar maydon, 20 ga yaqin rezident) bo'yicha 300–500 doimiy ish o'rni yaratilishi va yiliga 80–120 mlrd so'm sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishi mumkinligini ko'rsatadi. Sakkiz-o'nita zonadan iborat tarmoq esa qishloq tumanlarining viloyat sanoatidagi ulushini oshirish va tumanlararo tafovutlarni qisqartirish (konvergensiya) vazifasini hal etishga xizmat qiladi. Ushbu baholar shartli xarakterga ega bo'lib, pilot bosqich natijalari asosida aniqlashtiriladi – bu mexanizmning o'rganuvchi tabiatiga mos keladi.

Xulosa qilib aytganda, taklif etilgan uslubiyatning ilmiy qiymati «hudud sanoat salohiyati» kategoriyasining tuman darajasida amaliy o'lchovga aylantirilishida hamda salohiyat va natija tushunchalarining formal ajratilishida namoyon bo'ladi. Amaliy qiymati esa hududiy dasturlarni manzilli shakllantirish, kichik sanoat zonalarini ilmiy asoslangan tarzda joylashtirish va investitsiyalarni yo'naltirish bo'yicha qarorlarni asoslashning tayyor vositasini taqdim etishida ko'rinadi. Uslubiyat universal xarakterga ega bo'lib, O'zbekistonning boshqa viloyatlari sharoitiga ham moslashtirilishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-fevraldagi «Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida»gi O'RQ-604-son Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/-4737511?ONDATE=23.01.2025%2000>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi «Kichik sanoat zonalarini to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 134-son qarori. <https://lex.uz/docs/4758585>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-oktabrdagi «Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-169-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6633676>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-martdagi «Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-41-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/7420262>
5. Krugman P. *Geography and Trade*. – Cambridge, MA: MIT Press, 1991. – 156 p.
6. Fujita M., Thisse J.-F. *Economics of Agglomeration: Cities, Industrial Location, and Globalization*. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2013. – 544 p.
7. Farole T. *Special Economic Zones in Africa: Comparing Performance and Learning from Global Experiences*. – Washington, DC: The World Bank, 2011. – 306 p.
8. Porter M. E. *The Competitive Advantage of Nations*. – New York: Free Press, 1990. – 855 p.
9. Hausmann R., Hidalgo C. A. et al. *The Atlas of Economic Complexity: Mapping Paths to Prosperity*. – Cambridge, MA: MIT Press, 2014. – 368 p.
10. Becattini G., Bellandi M., De Propris L. (eds.). *A Handbook of Industrial Districts*. – Cheltenham: Edward Elgar, 2009. – 964 p.
11. Foray D. *Smart Specialisation: Opportunities and Challenges for Regional Innovation Policy*. – London: Routledge, 2015. – 122 p.
12. Saaty T. L., Vargas L. G. *Models, Methods, Concepts and Applications of the Analytic Hierarchy Process*. 2nd ed. – New York: Springer, 2012. – 346 p.
13. OECD, JRC – European Commission. *Handbook on Constructing Composite Indicators: Methodology and User Guide*. – Paris: OECD Publishing, 2008. – 158 p.
14. Nizomov A. B., Yavmutov D. Sh., Qosimova H. J. *Buxoro viloyati sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanish tendensiyalari va istiqbolli yo'nalishlari: monografiya*. – Buxoro, 2024.
15. Yusupov A. T., Axmedov T. M., To'xliyev N. va boshq. *O'zbekiston hududlarida sanoat salohiyatini oshirish va modernizatsiyalashning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari*. – Toshkent, 2023.
16. Buxoro viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari. 2010–2025-yillar. – Buxoro, 2026.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100